

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova**

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishslash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida ..... 6

**A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev**

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining o'rni ..... 9

**A.Y.Toyirov**

Hududiylar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'rni ..... 16

---

FALSAFA**A.A.Qambarov**

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

**G.T.Kabulniyazova**

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi ..... 27

**X.N.Xolmirzaev**

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

**S.S.Evato**

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili.... 37

**I.A.Asatulloev**

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiat deformatsiyasi..... 40

**B.X.Tolipov**

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlari ..... 46

**Sh.Q.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi ..... 50

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Axmadning ontoljik qarashlari..... 54

**L.K.Axatov**

Irfoniylar qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida)..... 59

**J.A.Mamanov**

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari ..... 63

**I.I.Umrzakov**

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

**Sh.A.Ismailov**

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari .... 74

**R.S.Raupova**

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'rni ..... 78

**M.A.Rahmonova**

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni ..... 84

**D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev**

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandası..... 92

**B.B.Dehqonov**

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalalarining o'rni va ahamiyati ..... 96

**A.Z.Sharipov**

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar assosi sifatida..... 102

**L.B.Ikromova**

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

**A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov**

Islam qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati ..... 111



UO'K: 1.(091):165.745:177.7(575.1)

**UYG'ONISH DAVRI FALSAFASINING MASHHUR VAKILI NIKOLAY KUZANSKIYNING  
PANTEISTIK ONTOLOGIYASI**

**ПАНТЕИСТИЧЕСКАЯ ОНТОЛОГИЯ НИКОЛАЯ КУЗАНСКОГО, ИЗВЕСТНОГО  
ПРЕДСТАВИТЕЛЯ ФИЛОСОФИИ ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ**

**THE PANTHEISTIC ONTOLOGY OF NICHOLAS OF CUSA, A FAMOUS  
REPRESENTATIVE OF RENAISSANCE PHILOSOPHY**

**Kabulniyazova Gulchexra Tashpulatovna**

O'zbekiston milliy universiteti, ijtimoiy fanlar fakulteti, "Falsafa" kafedrasini professori, f.f.d.  
(DSc)

**Annotatsiya**

*Maqolada Italyan faylasufi Nikolay Kuzanskiyning falsafiy dunyoqarashida panteistik g'oyalar yoritib berilgan. Nikolay Kuzanskiy olamni xudo bilan birlashtirib, undagi barcha jonzotlarni ruhlantirgan, tabiatni jonsiz va jonliga ajratmasdan uni yaxlitlikda, yagonalik tamoili asosida tirik organizm sifatida o'rgangan. Olamda paydo bo'lgan barcha narsalarni Kuzanskiy xuddi o'rgimchakni o'zidan to'qiyotgan iplariga o'xshatadi, bu timsol yordamida u xudoni olam bilan birlashib ketishini ko'satsadi, Kuzanskiy Xudoni shaxs sifatida emas, balki ruhlangan tabiat sifatida tushungan. Bilishning obekti va subekti uning ontologik qarashlarida birlashib ketadi, intellektidan tashqari Kuzanskiy intellektual intuitsiyani ajratadi va unga yuqori baho beradi. Barcha narsalarni yashirin mohiyatini aynan shu intellektual intuitsiya orqali bilish mumkin.*

**Аннотация**

В статье рассматриваются пантеистические идеи в философском мировоззрении итальянского философа Николая Кузанского. Николай Кузанский объединял вселенную с Богом, одухотворяющим все живое в ней, и изучал природу в целом, как живой организм, исходя из принципа единства, не разделяя ее на неживую и живую. Кузя сравнивает все, что появляется во вселенной, с нитями, сплетенными пауком. С помощью этой метафоры он показывает слияние Бога со вселенной. Кузя понимал Бога не как личность, а как едохновенную природу. В его онтологических возврениях объект и субъект познания едини; кроме интеллекта, Кузанский выделяет интеллектуальную интуицию и придает ей высокое значение. Именно посредством этой интеллектуальной интуиции можно познать скрытую сущность всех вещей.

**Abstract**

*The article sheds light on pantheistic ideas in the philosophical worldview of the Italian philosopher Nicholas of Cusa. Nicholas of Cusa united the universe with God, inspiring all living things in it, studied nature as a whole, based on the principle of unity, without dividing it into inanimate and animate. All things that appear in the universe, Cusa likens to the threads that a spider weaves from itself, with the help of this metaphor he shows the merging of God with the universe, Cusa understood God not as a person, but as animate nature. The object and subject of knowledge are united in his ontological views, in addition to intellect, Cusa distinguishes intellectual intuition and highly values it. It is through this intellectual intuition that the hidden essence of all things can be known.*

**Kalit so'zlar:** Antik falsafa, neoplatonizm, Platon, Aristotel, neoplatonizm, inson – mikrokosmos, koinot, ontologiya, gnoseologiya, emanatsiya, rivojlanish, harakat, cheksizlik, "maksimum va minimumlar" sxolastika, deduktiv uslub, matematik uslub.

**Ключевые слова:** Античная философия, неоплатонизм, Платон, Аристотель, неоплатонизм, человек - микрокосм, вселенная, онтология, гносеология, эманация, развитие, движение, бесконечность, «максимумы и минимумы», схоластика, дедуктивный метод, математический метод.

**Key words:** Ancient philosophy, Neoplatonism, Plato, Aristotle, Neoplatonism, man - microcosm, universe, ontology, epistemology, emanation, development, movement, infinity, "maximums and minimums" scholasticism, deductive method, mathematical method.

**KIRISH**

Nikolay Kuzanskiy (1401-1464) Trir eparxiyasining Kuza deb nomlangan qishlog'ida Germaniyada tug'iladi. Uning otasi baliq savdosi bilan shug'ullangan boy savdogar edi. O'zining ilk ma'lumotini Deventer shahridagi "umumiylayot birodarlar" maktabida oladi. Bu maktab diniy tusga ega bo'lib, Iso payg'ambarning hayotiga taqlid qilar edi. Birodarlarning mistik dunyoqarashi yosh

Nikolay Kuzanskiy fikrlariga katta ta'sir ko'rsatdi va uni sxolastik ratsional qarashlaridan uzoqlashtirdi. Keyingi ma'lumotini u Geydelberg va Paduya universitetlari davom ettiradi va bu erda kanonik ilmining doktori unvonini oladi, keyinroq u Kyoln Universitetida o'qiydi va bu erda buyuk Albert tarafdarlari bilan yaqin munosabatlarda bo'ladi. Nihoyatda iqtidorli olim bo'lganligi uchun u diniy muhitda katta obru qozonadi va yosh bo'lishiga qaramay kardinal unvonini oladi. Kuzanskiy diniy faoliyatda nihoyatda xar taraflama bo'lgan. U katolik cherkovini kuchaytirishda ko'p xizmat qildi, gusidlar bilan muzokaralar olib bordi. Pravoslav cherkovini katolik cherkovi bilan yaqinlashtirishga harakat qildi. Papa Piy II ning unga bo'lgan do'stona munosabati Nikolay Kuzanskiyning faoliyatida va mansabining yuqoriligidagi yordam berdi. Nikolay Kuzanskiy o'zining faol diniy harakatlari bilan bir qatorda ilm sohasida ham shuhrat qozondi. Nikolay Kuzanskiyning dunyoqarishiga Dionisiy Areopagit, Mayster Ekkart, Shartr maktabining platoniklari, Ioann Skot Eriugen kabi buyuk mistik mutafakkirlar kuchli ta'sir etadilar. Buning natijasida Nikolay Kuzanskiy sxolastikaga xos bo'lgan ratsional falsafiy qarashlarga tanqidiy yondoshadi va o'zining original neoplatonik falsafiy sistemasini yaratadi. [1]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Nikolay Kuzanskiy o'z davrining mashhur gumanistlari Silvio Pikkolomini, Lorenzo Valla, Ambrodjo Traversari, Paolo Toskanellilar bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Uning antik madaniyatga qiziqishi ham, aynan shu gumanistlarning ta'siri natijasida bo'ldi.

Kuzanskiy falsafasining, markazida xudoning borliqdagi o'rni masalasi egallaydi. Bu masalani hal qilishda Kuzanskiy barcha oldingi sxolastik qarashlardan tubdan farq qiladi. Agar xristian dinining ilk bor patristika davrida Platon, Plotin va Aleksandriyalik Filon falsafiy qarashlariga binoan xudo borliqning yagonaligi, transsensual reallik sifatida tushinilgan bo'lsa, xristian sxolastik falsafasida muqaddas diniy kitoblarni tushunish tufayli katta e'tibor xudoni aqliy jixatdan tushunishga qaratildi. Neoplatonizmdagi mistik jixatlar xisobga olinmadni va butun e'tibor xudoni faqat aqliy tushunishga qaratildi. Plotin ta'limotidagi panteistik qarashlar o'rniga sxolastika falsafasi Aristotelning ratsional, aqliy yondashuvni ustun ko'rdi va natijada antik davr faylasuflarining panteistik qarashlari sxolastik falsafada Aristotelning deistik yondashuvi bilan almashtirildi. Nikolay Kuzanskiy neoplatonizm falsafasini xristian diniy qarashlari bilan birlashtirdi va o'zining ta'limotini yaratdi.

### **NATIJA VA MUHOKAMA.**

Ushbu ta'limotda panteistik tendensiyalarni ko'rish mumkin. Garchi "Yaratuvchi va yaratilgan bir bo'lsa"da, Kuzanskiylik uchun Xudo tabiatdan mukammaldir. Panteistik pozitsiya shunday qilib quyidagi tezislarda ifoda etiladi: "birlik barcha narsalardir", "barcha narsalar birlashgan yagona eng yuqori birlidir". Panteizm, shuningdek, hamma narsa o'tasidagi o'zaro bog'liqlik, qaramaqarshiliklarning birlashishi, dunyoning Xudoda qisqarishi va Xudoning dunyoda kengayishi haqidagi ta'limotda, shuningdek, odamning Xudoni bilish jarayonida o'zini anglash haqidagi ta'limotda ham kuzatilishi mumkin. Kuzanlikning Xudo konsepsiysi panteizm va teizmni birlashtirib, birinchi sababning shaxsiyatdan xoliy tushunilishini anglatadi.[4]

Kuzanskiy ta'limotida xudo cheksiz yaratuvchi kuchdir. U butun olamlarni yaratadi va olamning ichida yashiringan, ya'ni olam va xudo yagona bir borliqdir. Lekin xudoning olamidagi borlig'i pardalangan yashirindir va barcha narsalarning mohiyatini tashkil etadi. U xristian diniga hos bo'lgan xudoni uch qiyofada ko'rinishini tanqid qiladi va xudoni ko'proq ruhiy qudrat, tabiatda yashiringan muqaddas ruh sifatida tushunadi. U xudoni cheksiz qudrat manbasi deb hisoblaydi va tabiatdagi barcha mavjudotlarda va tabiiy hodisalarda muqaddas ruhning tajallisini ko'radi, bunday panteistik qarashlar Nikolay Kuzanskiyi, yangicha dialektik fikr yuritishga olib keldi. Nikolay Kuzanskiyning xudo haqidagi qarashlari dialektik fikrlar bilan sug'orilgan va bilimdon-bilimsizlik tushunchasida Kuzanskiy tomonidan aniq va ravshan ochiladi.

Xudoning tabiatdagi mavjudligi oddiy ratsional fikr yuritish qolipiga sig'maydi. U mistik e'tiqod, Ollohga bo'lgan mistik ishonch orqali ochiladi. Bunday e'tiqod har qanday mantiqiy fikr yuritishdan holdir va uni tushunish uchun biz Kuzanskiy ta'limotidagi dialektik tushunchalarni o'rganishga o'tamiz.

"Maksimum", "o'zga" imkoniyat sifatidagi borliq, yashirin imkoniyatlarning ochilishi. Nikolay Kuzanskiy Platonik falsafasida ishlataladigan emonatsiya tushunchasi o'rniga ichki imkoniyatlarning ochilishi tushunchasini kiritadi. Bu tushuncha, xudoni tabiatning ichida yashiringan ichki imkoniyat sifatida talqin qiladi. Bu imkoniyatlarning yuzaga chiqishi xudoning tabiatdagi tajallisidir. Imkoniyatlar qancha ko'p ochilsa, yashiringan borliq yuzaga shuncha ko'p ko'tariladi.

## FALSAFA

Rivojlanishning o'zi Kuzanskiy fikricha, xudoning yashiringan holatdan yuzaga chiqishi va tabiatdagi mavjudotlarning borlig'i orqali tajalli etishidir. [4]

Olamning yaratilishi Kuzanskiyning fikricha, o'rgimchakning o'z ichidan to'r to'qishiga o'xshash jarayondir. Butun olam Ollohnning ichida imkoniyat sifatida doimo mavjud bo'lgan. Keyinchalik esa bu yashiringan mavjudlik yaratish jarayonida yuzaga chiqadi.[7]

Cheksizlik muammosi va kosmologiya. Ollohnning mavjudligi yashirin imkoniyatlarning ochilishi jarayonida sodir bo'ladi. Bu imkoniyatlar esa cheksizdir. Shuning uchun olamning cheksizligi aslida, Ollohnning borlig'ida yashiringan imkoniyatlarning cheksizligidan kelib chiqadi. Bu imkoniyatlarning ochilishi yaratish jarayonini tashkil etadi. Natijada koinot doimiy cheksiz o'zgarish va rivojlanish jarayonidir. Demak, xudoning yashiringan qiyofasining ochilishi, olamning yaratilishi va tuzilishiga sababdir. Koinotdagi barcha hodisalar va narsalar mohiyatida xudoning qiyofalarini ko'rish mumkindir. Bu qiyofalar o'zgaruvchan bir-biriga o'tib turadigan niqob ostidagi Ollohnning jamolidir.

Dunyo, birlikning ko'plikka, soddalikning murakkablikka aylanishi natijasida paydo bo'ladi. Barcha mavjudotlar – xudo nurining tarqalishi natijasi, va modda – dunyoning mavjud bo'lishi uchun imkoniyatdir. Olam, cheksizlikning ko'rinishini tashkil etgan bo'lib, chegaralanmagan. Dunyoning markazi bo'lmasi kerak, Va Yer yuzi uning markazi deb xisoblash – xatodir, ayniqsa, harakatsiz yulduzlar sferasining uning chegarasi bo'lishini e'tirof etish. Kuzanskiy Aristotel va Ptolemyning geotsentrizmga oid tasavvurlaridan bosh tortib, "Olam-sfera, markazi har joyda, a chegarasi esa hech qayerda" deb ta'kidlaydi. Uning tasavvurlarida teotsentrizm g'oyasi ustun turadi va agar dunyo markazi haqida gapirsa, dunyoning markazida Xudo joylashgan deb xisoblaydi. [5]

Uning fikricha, Olamda barcha narsalar harakatda bo'lib, uning turli qismlarida bir xil qonunlar hukmron. Harakat universaldir, barcha narsalar bir holatdan boshqaga o'tadi, barcha narsalar cheksizlikka intiladi va inson uchun bu intilish cheksiz izlanish, Abadiylikka yorug'lik qilish jarayoniga aylanadi. Olamda barcha narsalar nafaqat uning qismi, balki butun Olamning aksidir. Cheksizlik ko'plikda aks etadi. va har bir narsa Xudo va butun Olamni aks ettiradi. Xudoning dunyoning ichida bo'lishi – dunyoning Xudoda bo'lishiga tengdir. Bu tomonidan, narsalar va holatlar – Xudo ramzlaridir. Dunyo – bu Xudo emas, lekin Xudodan farq qilgan narsa emas. Dunyo – bu Xudoning ko'zgusi bo'lib, u har narsada uning moxiyati sifatida mavjud. Boshqacha qilib aytganda, dunyo – bu teofaniya, ya'ni Xudoning hissiy qabul qilinishi, unda har bir narsa betakror bo'lib, shu bilan birga, butun dunyo bilan o'zaro bog'liqdir. Zamonaviy tilda, biz bu erda xolistik va golografik tasavvurlar bilan uchrashamiz. Kuzanskiyga ko'ra, Olamni Xudoning timsoli sifatida tushunish, va dunyodagi o'tkinchi narsalarni Abadiylikning aksi sifatida ko'rish, cheksiz dunyoning to'liq tushunilishini aniqlashga va uni bilishga yordam beradi. [9]

Inson tabiat. Inson tabiat Olohnning eng buyuk yaratgan borlig'idir. Insonning tabiatida koinotdagi barcha unsurlar, jonzotlar birlashadi va yagona borliqni tashkil etadi. Shuning uchun insonning tabiatida Ollohnning yagona borlig'i mavjuddir. Lekin, bu yagona borliq inson tabiatida yashiringan va ayrim insonlarda bu yagona borliqning faqat bir qismi ochiladi. Ollohnning borligi va mavjudligi butun odamzotning borlig'ida mavjuddir. Butun odamzotning borlig'ini, ya'ni uning zotini o'z ichiga qamrab olgan shaxs ilohiy odamdir. Bu ilohiy odamni xristian dini tilida Nikolay Kuzanskiy "xudoning o'g'il", ya'ni mutloq ruhdan yaratilgan Iso Masih deb hisoblaydi.[2] Iso Masihning borlig'ida Ollohnning nurli siyomosi tajalli etadi va u butun olamni o'z ichiga jamlaydi. Iso Masihning tabiatи ilohiy tabiatdir va u butun borliq koinot bilan qo'shilib ketadi. Borliqning har bir nuqtasida Iso Masih mavjuddir va Iso Masihning ichida butun borliq mavjuddir.

Ayrim odamlarning tabiat esa bu yagona borliqning faqat bir qirrasini aks ettiradi. Lekin har bir insonda cheksiz rivojlanish imkoniyatlari mavjuddir. Agar Olam makrokosm bo'lsa, inson – mikrokosm bo'lib, "inson potensiyasida har bir narsa o'ziga xos holda mavjud". U Xudoga ruxi jihatdan o'xshash va Xudo kabi o'z kuchini va qobiliyatlarini tarqatib, o'ziga xos javoblarni topadi. Insonni hayvondan farq qiluvchi narsa, uning aqlidir, bu esa yuqori faoliyatni anglashga imkon beradi.

### Bilish haqidagi ta'lomit. Mantiqiylar qiyoslash va tafovutlash to'g'risidagi fikrlari.

Kuzanskiy fikricha, inson tafakkuri barcha bilimlarni o'ziga jo etgan va asta sekin ularni ochib beradi. Bilimning bunday yuzaga chiqishi asta-sekinlik bilan tajriba orqali amalga oshadi. Tafakkurning bir nechta bosqichlari bor:

1. Hissiyot va tasavvur.
2. Tafakkur yoki aql.

### 3. Tasavvur va mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir.

Bularning barchasi oly darajadagi aql yoki ruhning xossalardir. Hissiyotlar asosida va fikr yuritish yordamida aql narsalar haqida bilimga ega bo'ladi. Hissiyotlar inson aqliga nozik moddiy substansiya orqali ta'sir qiladi. Mantiqiy fikr yuritish hissiyotlardan olingan ma'lumotni tahlil qilib, bu tahlil asosida narsalar haqidagi bilimga ega bo'ladi. Lekin mantiqiy fikr yuritishning o'zi to'la bilimga etisha olmaydi. Bunday to'la bilimni aqldagi intuitiv qobiliyat beradi. Aql chegarasi yo'q bilimdir. Mantiqiy fikr yuritish esa chegaralangan. Kuzanskiy mantiqiy fikr yuritish bilan aql o'tasida farq bor deb hisoblaydi. Aqlga mantiqiy fikr yuritishdan tashqari hissiyot, tasavvur, intuitsiya kiradi. Shuning uchun aql cheksiz narsalarni bilishga qodir.[6]

Ishonch va bilim. Bu masalada Nikolay Kuzanskiyning fikrlari panteistik xarakterga ega edi. Ya'ni u xudo tabiatda tajalli etadi, tabiat esa xudoning ko'rinishi deb hisoblar edi. Lekin Kuzanskiyning bu fikrlari keng tarqalgan mistik bilimlardan farq qilar edi. Bu masalada Kuzanskiyning fikri averroistlarning ham fikridan farq qilar edi. Bunday tashqari e'tiqodning bunday tushunishi Kuzanskiy ta'limotini undan oldingi faylasuflarning qarashidan ham ustun edi.[8]

Intuitsiya va bilimning cheksizligi. Kuzanskiyning intuitsiya va cheksizlik haqidagi bilimlari o'sha davrning bilimlaridan tubdan farq qilar edi va Kuzanskiy intuitsiya orqali bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni birlashtiradi va ularning bir-biriga o'tish jarayonini qayd qiladi. Intuitsiya ziddiyatlarni engib bilimdag'i barcha tafovutlarni echadi. Intuitsiya aqlning oly turi bo'lib, barcha narsalarning mohiyatini ochib beradi. Mantiqiy fikr yurtishda esa, narsalarning faqat yuzaki hossalari o'rganiladi. Intellektual intuitsiya N.Kuzanskiy ta'limotida, "bilimli bilimsizlik" sifatida tan olinadi. "Bilimsiz bilim" deb atalgan intuitiv qobiliyat sxolastikadagi mantiqiy fikr yuritishga qarama-qarshi qo'yiladi. "Bilimsiz bilim" orqali narsalarning mohiyati asta-sekin bosqichma-bosqich ochiladi. Kuzanskiy tomonidan intuitsiyaga qo'yilgan bu nom olimlarni kamtarinlik yo'liga chaqirar edi. Manmanlik Kuzanskiy fikricha, bilish jarayonidagi eng katta to'siqlardan biridir. Bu to'siqqa qarshi intuitsiya-o'zining kamtarinligini qo'yadi. Kuzanskiy ta'limotida, haqiqat mutloq haqiqat emas, balki bosqichma-bosqich bilish jarayonidir.

Nikolay Kuzanskiy ta'limotida, bilimning sub'ekti va ob'ekti bir-biriga o'tadi va birlashadi. Bilish jarayoni cheksiz jarayon bo'lib, bu jarayonda tafakkur haqiqatni to'la bilishga intiladi.[3] Lekin unga etisha olmaydi. Kuzanskiy fikricha, tafakkurning haqiqatga intilishi ko'p burchakli shaklning doiraga intilishiga o'xshaydi, ko'p burchakli shaklning burchaklari ko'payib borgan taqdirda ham doira shakliga aylanmaydi. Xuddi shunday inson tafakkuri mutlaq haqiqatga erisha olmaydi. Ko'pburchakli shaklning doiraga aylanishi sub'ektning ob'ektga aylanishiga o'xshashdir. [10] Sub'ekt, ob'ekt munosabatlarini bunday tushunish panteistik qarashlardagi xudo va inson o'tasidagi munosabatlarni yangicha talqin qilishga ham ta'sir etdi. Kuzanskiy fikricha, inson butun borliqdag'i xudoni bilishga intiladi, buning natijasida insonning tabiatni ilohiylashib boradi. Xudo esa, insonning ichki olamida tajalli eta boshlaydi. Natijada inson ilohiy odamga aylanadi. Xudo tabiatda qanday o'zini tajalli etsa, inson ham xudoni aynan shu shakllarda o'rganadi. [11]

Kuzanskiy ijodida matematik uslub. O'sha davrning bilimlari ichida eng rivojlangani matematika bo'lganligi uchun, Kuzanskiy ham hamma boshqa fanlarda ham matematika usullarini keng ishlatalishni taklif qiladi. Sxolastik fanlarda matematika usullari keng ishlatalmas edi. Bu fanlar ko'proq Aristotelning mantiqiga asoslanar edi. Kuzanskiy tomonidan matematik usullarning keng ishlatalishi uyg'onish davridagi ilm-fanning rivojlanishidan dalolat berar edi. Kuzanskiyning matematik usullarini rivojlanishi keyinchalik yangi davrga kelganda fanlarning tajribasida katta yordam bera boshladi. Bu yangi davr bilimi tajribaga asoslangan bilimlar davri edi.

### XULOSA

Pifagorga qo'shilib, Kuzanskiy shunday deydi: "Yaratuvchining aqlidagi narsalarning ilk namunasi – bu raqam, unda biror narsani tushunish yoki yaratish mumkin emas". [1] Kuzanskiyning matematikasi – bu naturfilosofiya, va uning naturfilosofiyasi - bu matematika. U matematikadan foydalanib, absolyutda eng katta va eng kichikning qarama-qarshiligi yo'qligini va unda har qanday qarama-qarshilikning tenglik ekanligini xulosa qiladi, va bu nuqtai nazarda barcha mavjudiyat, minimal va maksimal orasida bo'lib, cheksizlikning bir qismidir. "Dunyo yaratilganda Xudo arifmetika, geometriya, musiqa va astronomiyadan foydalangan", - deb ta'kidlaydi Kuzanskiy, Pifagorchilar va Platonning ta'limotini takrorlab. Arifmetika dunyodan butunlikni yaratish uchun kerak bo'lgan, geometriya narsalarga shakl beradi. Kosmik musiqa orqali elementlar o'zlarini saqlab, bir-biri bilan bog'liqlikni saqlaydi. Astronomiya darajasida Xudo olamni osmon jismlarining harakatida buzilmas tizim sifatida yaratgan.

## FALSAFA

Shunday qilib, Nikolay Kuzanskiy Uyg'onish davrining eng yirik faylasuflaridan bo'lib, uning serqiralli ijodiga panteistik tabiat xos. U neoplatonizm an'analarini davom ettirdi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Гуговский М.А. Итальянское Возрождение: В 2-х томах. Л.: ЛГУ, 1947-1961. – С. 67.
2. Блинников Л.В. Великие философы. – М.: Логос, 1997. – С. 80.
3. Горфункель А.Х. "Философия эпохи возрождения". – М.: Высшая школа, 1980. – С. 27.
4. Горфункель. А.Х. Гуманизм и натурфилософия итальянского Возрождения. – М.: Мысль, 1977. – 123 с.
5. Соколов В.В. Европейская философия XV-XVII веков. – М.: Высшая школа, 1984. – С. 28.
6. Йулдошев С., ва бошқалар. Янги ва энг Янги Давр Фарбий Европа фалсафаси. – Т.: Шарқ, 2002. – 56 б.
7. Назаров Қ. Фарб фалсафаси. – Т.: Шарқ, 2004. – 234 б.
8. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. – Т: Шарқ, 2002. – 134 б.
9. Шодиев, Д. д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА'MUN SCIENCE", 1(2).
10. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.
11. Брагина Л.М. Итальянский гуманизм. Этические учения XIV-XV веков. – М.: Высш. школа, 1977. – 73 с.